

KORPORATIV BOSHQARUVNING MILLIY MODELINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI

PhD Yo'ldashova Gavhar

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-3761-5248

g.yoldashova@tsue.uz

Xabibullayev Dadajon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-0507-4340

d.xabibullayev@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini baholashning ijtimoiy jihatlari korporativ boshqaruv kompaniyaning o'z xodimlari, mijozlari, yetkazib beruvchilari va umuman jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatiga ta'sir qiladi. Yaxshi boshqaruv qulay ish muhitini yaratishga, ishchilarning huquqlarini himoya qilishga, xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish standartlariga rioya qilishga hamda manfaatdor tomonlar bilan ishonchli munosabatlarni saqlashga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, samaradorlik, korxona maqsadlari, ishlab chiqarish, innovatsion faoliyat, kompaniyalar, kuzatuv kengashi, raqobatbardoshlik, boshqaruv sifati.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ МОДЕЛИ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ

PhD Юлдашова Гавхар

Ташкентский государственный экономический университет

Хабибуллаев Дададжон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье социальные аспекты оценки качества корпоративного управления в компаниях затрагивают социальную ответственность корпоративного управления перед собственными сотрудниками компании, клиентами, поставщиками и обществом в целом. Эффективное управление создает условия для создания комфортной рабочей среды, защиты прав работников, соблюдения стандартов безопасности и охраны труда, а также поддержания надежных отношений с заинтересованными сторонами.

Ключевые слова: корпоративное управление, эффективность, цели предприятия, производство, инновационная деятельность, компании, наблюдательный совет, конкурентоспособность, качество управления.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL CORPORATE GOVERNANCE MODEL

PhD Yuldashova Gavhar

Tashkent State University of Economics

Khabibullayev Dadajon

Tashkent State University of Economics

Abstract. *Social aspects of corporate governance quality assessment in companies corporate governance affects a company's social responsibility towards its employees, customers, suppliers, and society as a whole. Good management creates the basis for creating a supportive work environment, protecting workers' rights, complying with occupational safety and health standards, and maintaining trusting relationships with stakeholders.*

Keywords: *corporate governance, efficiency, enterprise objectives, production, innovative activities, companies, Supervisory Board, competitiveness, quality of management.*

Kirish.

Kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini baholashning ijtimoiy jihatlari korporativ boshqaruv kompaniyaning o'z xodimlari, mijozlari, yetkazib beruvchilari va umuman jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyatiga ta'sir qiladi. Yaxshi boshqaruv qulay ish muhitini yaratishga, ishchilarning huquqlarini himoya qilishga, xavfsizlik va mehnatni muhofaza qilish standartlariga rioya qilishga hamda manfaatdor tomonlar bilan ishonchli munosabatlarni saqlashga zamin yaratadi.

Kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini baholashning axloqiy jihatlari, korporativ boshqaruv sifati, kompaniyaning axloqiy tamoyillari va qadriyatlari bilan bevosita bog'liqdir. Jarayonlarning shaffofligi, manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarda halollik, qonunchilik va biznes etikasi qoidalariga rioya qilish muvaffaqiyatli boshqaruvning ajralmas qismidir.

Bu jihatlarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, korporativ boshqaruvning iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka umumiy ta'sirini belgilaydi. Shuning uchun korporativ boshqaruv sifatini baholash har tomonlama bo'lishi hamda kompaniyalar va umuman, jamiyatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun ko'rsatilgan barcha omillarni hisobga olishi kerak.

Iqtisodiyot sektorlarini transformatsiyalash sharoitida aksiyadorlar boshqaruvni almashtirish va mulkni qaytadan bo'lib olish bilan g'alabaga erishish ehtimoli yuqori bo'lgan hollardagina qarama-qarshilik harajatlari va mojarolarga boradi.

Hozirgi kunda aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini joriy etishda bir qator muammolar yuzaga kelmoqda. Jumladan:

- korporativ boshqaruv va nazorat sohasida amaliy mexanizmlarni shakllantirish borasida faollikning sustligi;
- mojarolarga olib keluvchi aksiyadorlar manfaatlarini uzoq muddatli himoya qilish mexanizmlarining yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;
- zamonaviy korporativ boshqaruv modellaridan samarali foydalanilmasligi.

Biroq, yuqoridagi muammolarga qaramay, davlat iqtisodiyotida mulkchilik shakllari va ularga egalik qilish huquqlarining barqarorlashuvi zamon talablariga moslashtirilib, yangi rivojlanish bosqichini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar sharhi.

Xorij mamlakatlari tajribasidan ma'lumki, korporativ boshqaruv mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilab beradigan asosiy tuzilma hisoblanib, hozirda iqtisodiyoti rivojlangan va rivojlanyotgan mamlakatlarda takomillashib bormoqda. Chunki davlatning

korporativ sektorini ilg'or xoijiy tajribalarni joriy etish orqali rivojlantirish kompaniyalardan xalqaro standartlarga mos darajadagi korporativ boshqaruvni talab qiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, "mulkchilik strukturasi ustuvor bo'lgan mamlakatlarning jahon bozor kapitalizatsiyasidagi ulushi oxirgi yillar ichida 20 foizdan (1998-2002- yy.) 34 foizgacha (2013-2015 yy.) oshgan, bunga asosan, rivojlanayotgan mamlakatlar kapital bozorlarining keskin taraqqiy etishi sabab bo'lgan. Shuning uchun, mamlakat korporativ boshqaruvining sifati uning korporativ sektori raqobatbardoshligi va dinamik rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega" (Maxkamova, 2019).

Bundan tashqari, jarayonlarni modernizatsiya qilish tashkilot ichidagi aloqa va hamkorlikni yaxshilashga yordam beradi, bu esa, xodimlarning motivatsiyasini oshiradi va innovatsiyalarni rivojlantiradi. Shuningdek, korporativ boshqaruvda modernizatsiya jarayonlarining samaradorligi korporativ kompaniyalarning muvaffaqiyatli faoliyati va ular raqobatbardoshligida muhim rol o'ynaydi.

Samarali korporativ boshqaruv borasida ham turlicha qarashlar shakllangan. Xususan, "samarali korporativ boshqaruvning mohiyati korporatsiya va uning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi ishonchli munosabatlarning yo'lga qo'yilishini ta'minlashda namoyon bo'ladi" (Department, n.d.). Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mavzuga oid adabiyotlar tahlilini o'tkazish natijasida iqtisodiyotni transformatsiyalash jarayoniga o'tishda korporativ boshqaruv masalalari turlicha talqinda ko'rib o'tilgan.

"O'zbekistonda korporativ boshqaruvning milliy modelini shakllanish bosqichida turganligi, tarqoq holda turli modellarning ayrim jihatlarini o'zida mujassamlashtirganligi ko'plab tadqiqotchi-olimlar tomonidan ta'kidlanadi" (Ostanoqulova, 2013). Hozirgi kunga kelib, mamlakatimizda korporativ boshqaruvning milliy modelining shakllanganligi va uning to'la-to'kis yakunlangan masalasi ochiqlicha qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada turli usullardan foydalanildi. Kompaniyalarda korporativ boshqaruv sifatini oshirishda qo'llaniladigan tizimli yondashuvlar, monografik kuzatish, abstrakt-mantiqiy fikrlash, taqqoslama tahlil, ekspert baholash, konstruktiv baholash, bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Korporativ boshqaruv modellari yoki tizimlari ilmiy munozaralar uchun yana bir muhim mavzu hisoblanadi. Turli adabiyotlarda "korporativ boshqaruv modellariga nisbatan qarashlar xilma-xil bo'lishiga qaramasdan, korporativ boshqaruvning Kontinental Yevropa va anglo-sakson modellari ikki bazaviy modellar hisoblanib, qolgan modellar ma'lum ma'noda shu ikki modeldan kelib chiqqan degan qarashlar mavjud. Masalan, korporativ boshqaruvning islomiy modeli (Islamic model) stejkxolder (kontinental yevropa) modeliga moslashtirilgan bo'lib, anglo-sakson modelining eng yaxshi amaliyotlarini o'zida mujassamlashtirgan hamda asosiysi, shariat tamoyillariga asoslangan model hisoblanadi. Shuningdek, ayrim tadqiqotchilar tomonidan korporativ boshqaruvning yapon modelini kontinental yevropa modeli sifatida ko'rsatish holatlari ham uchrab turadi" (Glyushkova, 2004).

Korporativ boshqaruv sifatini baholash metodologiyasi tarkibi quyidagi rasmda aks ettirilgan. Shuningdek, kompaniyada korporativ boshqaruv sifatini baholashning asosiy elementlari quyidagilar hisoblanadi:

- mulk;
- axborot shaffofligi;
- boshqaruv tuzilmasi va aksiyadorlar umumiy yig'ilishining imkoniyatlari;
- menejerlarga haq to'lash mexanizmi;
- monitoring, nazorat, identifikatsiya va xatarlarni boshqarish tizimi;
- korporativ madaniyat tizimi.

Dunyoga mashhur “Ernst & Young” (EY) auditorlik-konsalting kompaniyasi Shveysariya kompaniyalarining birida korporativ boshqaruv sifatini baholash amaliyoti bo'yicha tadqiqot olib borgan, ushbu tadqiqotda esa xususiy kapital qiymatini aniqlashda risk holatlari uchun mukofotni hisobga olgan holda moliyaviy aktivlar modelidan foydalanilgan. Kompaniya qarz kapital qiymatini baholashda korporativ obligatsiya va kredit spredlar inobatga olinib baholash jarayonini amalga oshirgan. Tadqiqot natijasiga ko'ra ushbu mamlakat korporativ tuzimlarining kapital qiymati 10, 11 foiz deb ko'rsatilgan.



1-rasm. Korporativ boshqaruv sifatini baholash metodologiyasi tarkibi

Manba: ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur tadqiqot investor uchun kompaniyalarga kiritiladigan investitsiyadan kutilayotgan daromadni ko'rsatadi. Kompaniya tomonidan esa investitsiya loyhasini amalga oshirish uchun talab qilingan daromad stavkasi hisoblanadi. Uning kapital qiymatini baholashda risksiz aktivlar stavkasida Shveysariyaning milliy valyutasida emissiya qilingan davlat obligatsiyalari foiz stavkasi, bozor riski uchun mukofot ko'rsatkichiga global bozor riski uchun mukofot ko'rsatkichi inobatga olingan, kichik kapitallashuvga ega bo'lgan korxonalarning risk uchun mukofot ko'rsatkichini hisobga olgan holda amalga oshirgan.

O'zbekiston Respublikasining korporativ boshqaruv tizimi shaklan nemis modeliga o'xshashdir. Bu o'xshashlik ikki pog'onali kengash, moliyalashtirishda bank tizimining yetakchiligi kabilarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, milliy korporativ boshqaruv tizimining o'ziga xos jihatlari ham mavjud. Masalan, mamlakatimiz korporativ tuzilmalarida ishchi va xodimlarning Kuzatuv kengashiga nomzod ko'rsatishi yoki ishtirok etishiga ruxsat etilmaydi. Ayni paytda, yirik nemis korporatsiyalari kuzatuv kengashlarining 50 foizini aynan ishchi va xodimlarning vakillari tashkil etadi. Shuningdek, respublikamizda korporativ moliya bozorida emitentlarning korporativ obligatsiyalar orqali moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyati cheklangan. Bunda muayyan darajada korporativ obligatsiyalarni muomalaga chiqarish shartlarining sezilarli darajada murakkabligi va qiyinligi rol o'ynasa, boshqa tomondan ikkilamchi bozorning sust rivojlanganligi, fond bozori likvidligining pastligi va uni ta'minlash uchun market-meykerlarning mavjud emasligi kabi institutsional muammolar ham mavjudki, bu oxir oqibat fond bozoriga asoslangan anglo-sakson modelining eng yaxshi amaliyotlaridan foydalanish imkoniyatini pasaytiradi.

1-jadval

**Shveysariyadagi aksiyadorlik jamiyatlari korporativ boshqaruv sifatini
baholash usullari (Guide, 2018)**

Davlat obligatsiyasining daromad darajasi (Shveysariyaning 10 yillik davlat obligatsiyasi daromadliligi darajasi)	a
Global risk uchun mukofot	b
Amaliyotchilar usuliga ko'ra: $\beta = \text{leveragesiz } \beta * (1 + \text{qarz/kapital})$	d
Korxonaning kapitallashuvi darajasi uchun riskning hajmi (Duff&Fhelps, baholash qo'llanmasi ma'lumotlari)	e
Kapital qiymatni baholash (g)	$g = a + b \cdot d + e$
Davlat obligatsiyasining daromad darajasi (Shveysariyaning 10 yillik davlat obligatsiyasi daromadliligi darajasi)	h
Kredit spred (kredit reyting ko'rsatkichi)	i
Qarz kapitali qiymatini baholash(k)	$k = h + i$
Kapital tarkibida xususiy kapital ulushi	l
Kapital tarkibida qarz kapital ulushi	m
Korporativ soliq stavkasi	n
Kapitalning o'rtacha tortilgan qiymati	$g \cdot l + k \cdot m \cdot (1 - n)$

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib, korporativ boshqaruvning muayyan tizimi yoki modelini mutlaq ustunliklarga ega deyish mushkul. Chunki korporativ boshqaruvning har bir modeli, har qaysi sohada samarali faoliyat yuritishi uchun yetarlicha shart-sharoitlar mavjud va ularni samarali faoliyat yuritishini baholash maqsadida zamonavoy baholash mezonlari va tajriba amaliyotlari yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, milliy va jahon korporativ tuzilmalarida turli xil farqlar borligiga qaramay, milliy korporativ boshqaruv mezonlarini yaratishda jahon tajribalaridan va mezonlaridan foydalanish, ya'nikim, milliy boshqaruv kodeksimizni ishlab chiqishda jahon tajriba va tamoyillaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa va takliflar.

Korporativ boshqaruv tizimining sifati, asosan, tizim elementlari tomonidan bajariladigan funksiyalar bilan belgilanadi. Korporativ boshqaruv jarayonlarining sifati kompaniyaning asosiy maqsadiga yaqinlashish o'lchovi bilan tavsiflanadi.

"O'z kimyosanoat" AJ hamda aksiyadorlik jamiyatining tashkiliy tuzilmasiga kiruvchi kimyo sanoati kompaniyalarining korporativ boshqaruv tizimi sifatiga ta'sir etuvchi omillar bu ishlab chiqarish sarf-xarajatlarini kamaytirish va tannarxini pasaytirish hamda energiya va resurslarni tejaydigan zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq etish hisoblanadi.

Korporativ boshqaruv tizimi sifatini oshirish mexanizmining keng joriy qilinishi kimyo sanoatida mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'atlarini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish tarmog'ida asosiy mahsulotlarni ishlab chiqarish miqdori hamda ularning barqarorligini ta'minlash bilan korporativ boshqaruvni joriy qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar orasida bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rish mumkin.

Adabiyotlar/Литература/References:

Department (n.d.) *The International Finance Corporation & the U.S. Department of Commerce, The Russia Corporate Governance Manual*, p.13.

Maxkamova M.A. (2019) Aktsionerlik korxonalarida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. "Korporativ boshqaruv nazariya va amaliyot" ilmiy maqolalar to'plami (respublika ilmiy seminari materiallari). 23 yanvar 2019 yil. 36 - bet.

Ostanoqulova G.M. va b. (2013) O'zbekiston Respublikasida korporativ boshqaruvning milliy modelini rivojlantirish istiqbollari. //Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar.(ilmiy elektron jurnal) №6. Aprel.

Suyunov D.X., Tursunov B.R. (2022) Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samadorligini oshirish. *Cyentral Asian Academic journal* ISSN: 2181-2489 of SCIENTIFIC RESEARCH VOLUME 2 | ISSUE 2.

Yuldashova G. (2024) ASSESSMENT OF THE QUALITY OF CORPORATE GOVERNANCE - A CRITERION OF EFFICIENCY *Economic Sciences, Norwegian Journal of development of the International Science* No 140.

Yuldashova G. (2024) Korporativ boshqaruv sifatini baholash samadorlik mezonidir. *Iqtisodiyot va ta'lim* / 2024-yil 2-son. https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a11

Глушкова Л.А. (2004) К вопросу о применении модели корпоративного управления в российских коммерческих банках. *Банковское дело, октябрь-декабрь, №4*. сс.2-11.